

«MA'QULLANGAN»
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
Dori vositalari va tibbiy texnika
sifatini
nazorat qilish Bosh boshqarmasi
«19» 11 2014y.№ 22

Bu dorini qabul qilishingizdan avval yuriqnomani diqqat bilan o‘qib chiqing.
Bu dori retseptsiz beriladi. Doridan optimal natijalar olish uchun, uni qabul qilganda yuriqnomada bayon etilgan xamma kursatmalarga jiddiy amal qiling.
- Yo‘riqnomani saqlab qoling, u sizga yana kerak bo‘lishi mumkin.
- Savollaringiz paydo bo‘lsa, shifokorga murojaat qiling.

QO‘LLASH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA
KLARIDOL
KLARIDOL

Preparatning savdo nomi: Klaridol

Ta’sir etuvchi modda (XPN): loratadin

Dori shakli: sirop

Tarkibi:

faol modda: loratadin 1 mg/1 ml.

yordamchi moddalar: metilparaben, propilparaben, saxaroza, propilenglikol, limon kislotasi, sorbit eritmasi, saxarin natriy, natriy benzoati, dinatriy edatat, quyosh botishi bo‘yog‘i, aralash meva xushbuyi, amerika muzqaymog‘i, tozalangan suv.

Ta’rifi: tiniq, to‘qsariq rangli, shirin mazali va yoqimli xidli suyuqlik.

Farmakoterapeutik guruhi: allergiyaga qarshi vosita-N1-gistamin retseptorlari blokatori.

ATX kodi: [R06AX13]

Farmakologik xususiyatlari

Loratadin - N1 - gistamin retseptorlarini blokatori (uzoq muddatli ta’sir qiluvchi). Semiz hujayralardan gistamin va leykotriyen ajralib chiqishini susaytiradi. Allergik reaksiyalar rivojlanishini oldini oladi va kechishini yengillashtiradi. Allergiyaga qarshi, qichishishga qarshi, ekssudatsiyaga qarshi ta’sirga ega. Kapillyarlar o‘tkazuvchanligini kamaytiradi, to‘qimalarni shishi rivojlanishini oldini oladi, silliq mushaklar spazmini yo‘qotadi. Allergiyaga qarshi samarasi 30 minutdan keyin ta’sir ko’rsatadi, 8-12 soat o‘tgach maksimumga yetadi va 24 soat davom etadi. Markaziy nerv tizimiga ta’sir qilmaydi va o‘rganib qolishlik chaqirmaydi (chunki amalda gematoenitsefalistik to‘sinq orqali o‘tmaydi).

Farmakokinetikasi

Me'da-ichak yo'llaridan tez va to'liq so'rildi. Maksimal konsentratsiyaga erishish vaqtiga 1,3-2,5 soat; ovqat qabul qilish uni 1 soatga sekinlashtiradi. Jigarni alkogol bilan shikastlanishida kasallik og'irligini oshishi bilan, keksa odamlarda maksimal konsentratsiyasi 50% ga oshadi. Plazma oqsillari bilan bog'lanishi - 97%. Jigarda sitoxrom R450 ni CYP3A4 va kamroq darajada CYP2D6 fermentlari ishtirokida faol metaboliti dekarboetoksiloratadin hosil qilib metabolizmga uchraydi.

Loratadin va metabolitini plazmadagi muvozanat konsentratsiyasiga yuborishni 5 sutkasida erishiladi. Gematoensefalik to'siqdan o'tmaydi. Loratadinni yarimchiqarish davri - 3-20 soat (o'rtacha 8,4), faol metoolitini - 8,8-92 soat (o'rtacha 28 soat); keksa patsiyentlarda mos ravishda - 6,7-37 soat (o'rtacha 18,2 soat) va 11-38 soat (17,5 soat). Jigarni alkogolli shikastlanishida kasallik og'irligini oshishi bilan yarimchiqarish davri oshadi. Buyraklar orqali va o't-safro bilan chiqariladi. Surunkali buyrak yetishmovchiligi bo'lgan patsiyentlarda va gemodializ o'tkazilganida farmakokinetikasi amalda o'zgarmaydi.

Qo'llanilishi

Mavsumiy va yil davomidagi allergik rinit, konyunktivit, pollinoz, eshakemi (shu jumladan surunkali idiopatik), Kvinke shishi, allergik qichima dermatozlar; psevdoallergik reaksiyalar, hashoratlar chaqqanidagi allergik reaksiyalar, turli etiologiyali qichima.

Qo'llash mumkin bo'limgan holatlar

O'ta yuqori sezuvchanlik, homiladorlik, laktatsiya davri, 2 yoshgacha bo'lgan bolalar. Ehtiyyotkorlik bilan - jigar yetishmovchiligi.

Qo'llash usuli va dozalari

Ichga qabul qilinadi.

Kattalar va 12 yoshdan oshgan bolalar: 10 mg dan Klaridol (ikki choy qoshiq sirop) kuniga 1 marta.

Sutkalik doza - 10 mg.

2 dan 12 yoshgacha bo'lgan bolalarga Klaridol dozasi tana vazniga qarab buyurish tavsiya qilinadi:

- tana vazni 30 kg dan kamligida - 5 mg dan (bir choy qoshiq sirop) kuniga 1 marta. Sutkalik doza - 5 mg.
- tana vazni 30 kg va ko'pligida - 10 mg dan (ikki choy qoshiq sirop) kuniga 1 marta. Sutkalik doza - 10 mg.

Nojo'ya ta'siri

Quyida sanab o'tilgan nojo'ya ta'sirlar, loratadin qo'llaganida tez-tezligi $\geq 2\%$ uchraydi va platsebo ("pustishka") qo'llanganida ham taxminan shu tez-tezligida uchraydi.

Kattalarda: bosh og'rig'i, charchoqliq, og'iz qurishi, uyquchanlik, me'da-ichak buzilishlari (ko'ngil aynishi, gastrit), shuningdek teri toshmasi ko'rinishidagi allergik

reaksiyalar. Bundan tashqari anafilaksiya, alopetsiya, jigar faoliyatini buzilishi, yurak urishi, taxikardiya haqida kamdan-kam xabarlar bo‘lgan.

Bolalarda kamdan-kam: bosh og‘rig‘i, asabyilik, sedativ ta’sir.

Boshqa dori vositalari bilan o‘zaro ta’siri

Etanol loratadin samarasini pasaytiradi. Eritromitsin, simetidin, ketokonazol loratadin bilan bir vaqtda qo‘llanganida, klinik ko‘rinishlar chaqirmasdan va EKG ga ta’sir qilmasdan, qon plazmasida loratadin konsentratsiyasini oshiradi. Mikrosomal oksidlanish induktorlari (fenitoin, barbituratlar, zikSORIN, rifampitsin, fenilbutazon, uchsiklik antidepressantlar) loratadin samarasini pasaytiradi.

Maxsus ko‘rsatmalar

Davolanish davrida yuqori diqqatni jamlashni va tezkor psixomotor reaksiyalarni talab qiluvchi potensial xavfli faoliyat turlaridan saqlanish kerak.

Preparat bolalar olaolmaydigan joyda saqlansin va yaroqlilik muddati o‘tgach ishlatilmasin.

Dozani oshirib yuborilishi

Simptomlari: uyquchanlik, taxikardiya, bosh og‘rig‘i. Doza oshirib yuborilgan hollarda shifokorga murojaat qilish lozim.

Davolash: qayd qilishni chaqirish, me’dani yuvish, faollangan ko‘mir qabul qilish.

Chiqarilish shakli

Sirop (1mg/1 ml) qahrabo rangli shisha flakonlarda 100 ml dan. Bir flakon qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomasi bilan karton qutida

Yaroqlilik muddati

3 yil.

Saqlash sharoiti

Quruq joyda, 2° dan to 30° S gacha haroratda.

Dorixonalardan berish tartibi

Retseptsiz.

Ishlab chiqaruvchi:

Shreya Layf Sayensiz Pvt. Ltd., Xindiston

Shreya Xaus, 301/A, Pereira Xil Roud, Anderi (Ist.), Mumbay – 400 099.